IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

O’zbekistonda Kimyo fani, kimyo sanoatining rivojlanishi va Kimyo fanining rivojlanishi uchun hissa qo’shgan o‘zbek olimlar

[1]Dumanov Baxromjon Muxtarovich

Andijon davlat pedagogika instituti Sirtqi bo‘lim dekani Dotsent

[2]To’xtasinov Otabek foziljon o’g’li
Andijon davlat pedagogika instituti Kimyo yo‘nalishi 201-guruh talabasi

toxtasinovotabek346@gmail.com

Annontatsiya: Ushbu maqolada Kimyo fanining rivojlanishi va rivojlanishi uchun katta hissa qo’shgan olimlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: Kimyo sanoati,kimyo fani,atrof muhit kimyoviy zavodlari,kimyoviy moddalar va olimlar.

O’zbekiston Respublikasi kimyo fani va kimyo sanoatining rivojlanishi uchun hamma shart-sharoitlarga ega. Yirik xomashyo zahiralari mavjud: bularga tabiiy gaz, gaz kondensati, fosforit, osh tuzi, marmar, ohaktosh, neft va boshqalar kiradi. Kimyo korxonalari kompaniyalarida 30 mingdan ortiq yuqori malakali ishchilar ishlaydi. Oliy o’quv yurtlarida kimyo mutaxassisligi bo’yicha kadrlar tayyorlash amalga oshirilmoqda. 2001-yil mart oyida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kadrlar bilan “O’zkimyosanoat” davlat aktsionerlar jamiyati tuzildi. “O’zkimyosanoat” davlat aktsionerlar jamiyatining 2004-2007 yil va 2010-yilgacha korxonalarning “Rivojlanish va texnik qayta qurollanish rejalari” ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Kimyo sanoatining rivojlanish yunalishlarining asosiy strategiyalariga: harakatdagi mineral o’g’itlar ishlab chiqarish korxonalarini rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish; to’xtab qolgan ishlab chiqarish mahsulotlarini eksportbop qilib ishlab chiqarishni o’zlashtirish kabilar kiradi. Kalsinatsiylangan soda (Na2CO3) ishlab chiqarishni ko’paytirish hisobiga kimyo sanoatlari, qurilish materiallari sanoatlari uchun shisha, shisha mahsulotlari, silikagel ishlab chiqarishda zarur bo’lgan Na2CO3 ning quvvati bir yilda 700 ming. t. yetkaziladi. 2005-yilda ushbu maxsulot ishlab chiqaradigan zavod ishga tushirildi.Respublikaning oliy o’quv yurtlarida muhandis-texnik xodimlar, kimyogarlar va ishchi kadrlar tayyorlash bo’yicha tinimsiz ishlar olib borilmoqda. Har yili yirik kimyo korxonalariga, o’quv muassasalariga minglab yuqori malakali kadrlar tayyorlab bermoqda. “O’zbekiston o’z yer osti boyliklari bilan haqli ravishda faxrlanadi – bu erda Mendeleyev davriy sistemasidagi deyarli barcha elementlar topilgan” degan jumlani hurmatli birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytgan va O’zbekistonda kimyoni rivojlanishiga haqiqiy ob’ektiv baho bergan. O’zbekiston bugungi kunda oltin zahirasi bo’yicha dunyoda 4-o’rinda, uni qazib olish bo’yicha 7-o’rinda turadi. Respublikamizning Navoiy va Chirchiq shaharlarida joylashgan eng yirik elektr kimyo kombinatlari bugungi kunda o’z maxsulotlari bo’yicha nafaqat Respublikamiz talabini balki, jahonning qator mamlakatlariga o’z mahsulotlarini eksport qilmoqda. Respublikamiz Mustaqillikka erishgandan keyin o’nlab yangi neft konlari izlab topildi va bugungi kunda ularning soni 160 dan oshib ketdi. Ustyurt, Buxoro – Xiva, Janubiy – G’arbiy Xisor, Surxondaryo, Farg’ona kabi mintaqalarda neft va gazning yirik zahiralari mavjudligi aniqlandi. O’zbekiston – kimyoviy moddalarga, gaz, neft, oltin, mis, rux kabi metalllarga boy bo’lgan diyordir.

O’zbekistonda kimyo fani rivojlanishiga hissa qo’shgan olimlar O’zbekistonda nafaqat anorganik kimyoning, balki kimyoning hamma tarmoqlarini rivojlanishi uchun juda katta hissa qo’shgan yirik o’zbek kimyogar olimlaridan Obid Sodiqovich Sodiqov, Sobir Yunusovich Yunusov, Malik Nabievich Nabiev, Hamdam Usmonovich Usmonov, Karim Sodiqovich Axmedov, Zokirjon Salimovich Salimov va boshqalarni aytib

o’tishimiz mumkin.Ular haqida qisqacha ma’lumot beradigan bo’lsak; Dunyoga mashhur bo’lgan 1200 ta kimyogar olimlar orasidagi yagona o’zbek olimi Sodiqov Obid Sodiqovich (1913-1987) O’z.FA.akademigi. O’z.FA.Prezidenti (1966-1984). Beruniy nomidagi O’z.R.Davlat mukofati laureati. O’z.R va Q.Q.A.R xizmat ko’rsatgan fan va texnika arbobi. D.I.Mendeleev nomidagi oltin medal sohibi. Sodiqov Obid Sodiqovich organik, bioorganik va tabiiy birikmalar kimyosi sohasidagi yirik olim, ilmiy ishlari O’rta Osiyodagi alkaloidli o’simliklarni tekshirish, yangi alkaloidlar ajratib olish, ularning tuzilishi va konformatsiyasini aniqlashga, g’o’za tarkibidagi alkaloidlarni, O’rta Osiyo yovvoyi o’simliklarni tarkibidagi alkaloidlarni muhofaza qilish sohasidagi katta ilmiy muammolarni hal etishga qaratilgandir.G’o’za bargi, chigiti, guli va g’o’zapoyadan turli yuqori molekulali uglevodorodlar, spirtlar, turli vitaminlar ajratib olishni o’ylab topgan.

O’zbekiston FA.akademiyasining va bir qator chet ellar akademiyalarining akademigi, alkaloidlar kimyosi taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shgan o’zbek kimyogarlaridan biri Sobir Yunusovich Yunusovdir. Sobir Yunusovich Yunusov (1909-1991) O’zFA akademigi, “Leopoldin” nomidagi nemis tabiatshunoslari akademiyasi akademigi. O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan fan va texnika arbobi. Beruniy nomidagi O’z.R.Davlat mukofoti laureati. Ilmiy ishlari o’simliklar tarkibidan alkaloidlarni izlash, ularni ajratib olish, xalq xo’jaligining turli sohalarida qo’llanilishiga bag’ishlangan. Akademik Sobir Yunusov Yunusovich rahbarligida alkaloidlarning o’simliklarda yig’ilish dinamikasi va hosil bo’lish mexanizmi chuqur o’rganilgan.To’rt mingdan ortiq o’simlik o’rganilib, ularning yarmisi tarkibida alkaloid mavjudligi aniqlangan.Uch yuzdan ortiq yangi alkaloidlarning tuzilishi aniqlangan.Ko’pgina preparatlarning tibbiyotda qo’llanilishiga Sobir Yunusov Yunusovichning roli katta bo’ldi. Uning rahbarligida yuqori samarali pestitsidlar topildi va qishloq xo’jaligiga joriy etildi.

Keyingi VI asr mobaynida kimyo sohasida ilmiy daraja berishga munosib topilgan 19 ta ixtisoslik ro‘yxatga olingan. Anorganik kimyo, analitik kimyo, organik kimyo, fizik kimyo, neft kimyosi, o‘ta sof moddalar kimyosi shular sirasidandir. Mazkur fanlarning yaratilishi sohaning mashhur namoyandalari, dunyo ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan G. Devi, J. Dalton, R. Boyl, M. V. Lomonosov, I. Berseus va boshqa zabardast olimlar nomi bilan bog‘liq.

XXI asr bo’sag’asida insoniyat oldida turgan eng muhim muammolardan biri – bu tabiatni asrash va ekologiya muammosi bo`lib qolyapti.O`zbekiston respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik va taraqiyot kafolatlari“ nomli asarida shunday deyilgan: “Ekalogik muammo – Yer yuzining hamma burchagida ham dolzarb.Faqat uning keskinlik darajasi dunyoning turli mamlakatlari va mintaqalarida turlichadir “.

Zikr etilgan fan sohalarining yigirmanchisi Osiyo davlatlari orasida birinchi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganiga 6 yil bo’lganda ixtiro etildi. Unga kimyo fanlari doktori, Andijon davlat universiteti professori Ibrohimjon Asqarov hamda texnika fanlari doktori, akademik To‘xtapo‘lat Risqiyev asos solishgan edi. “Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash” deb nomlangan mazkur fan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan ma’qullangan.BMTning fanlar bo‘yicha vakili, Butunjahon bojxona tashkiloti Bosh kotibi Jeyms Shaver yangi mutaxassislikning birinchi muallifiga quyidagicha ta’rif bergan edi: “Professor Ibrohimjon Asqarov tomonidan kashf etilgan “Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash” uslubi jahon kimyo fanida butunlay yangi yo‘nalish deb e’tirof etildi. Ayniqsa, bojxona sohasida, ya’ni tovar-moddiy boyliklarni bojxona ekspertizasidan o‘tkazishda bu fanning ahamiyati beqiyos ekanligi diqqatga sazovordir. O‘zbek olimi, professor Ibrohimjon Asqarovni kimyo fanidagi ulkan kashfiyoti bilan qutlayman!”.Endilikda jahonda tovarlarga, xususan, tovarlar kimyosiga doir tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etayotgani, davr ixtisoslikning maqsad va vazifalarini kengaytirishni taqozo qilayotganidan kelib

chiqqan holda Asqarov mazkur soha atamasini “Tovarlar kimyosi” deb nomlash yuzasidan mas’ul tashkilot hamda muassasalarga murojaat qilib, ixtisoslikning yangi tahrirdagi pasportini taqdim etdgan.Zamonaviy Kimyo sanoatining shakllanishi 1932-yil qadimdan oltingugurt qazib olingan Sho‘rsuv oltingugurt koni (Farg‘ona vodiysi)ning ishga tushirilishi bilan boshlandi. Bu korxona sobiq SSSRda ishlab chiqariladigan oltingugurtning 57% ini bergan va Ittifoqning oltingugurt mustaqilligini ta’minlashda muhim rol o‘ynadi. Kimyo sanoatining eng yirik korxonasi Chirchiq elektr kimyo kti 1940-yil oktabrdan maxsulot bera boshladi. Shu yili 608,9 t ammiak, 961,7 t kuchsiz azot kislotasi va 930 t ammiak selitrasi ishlab chiqarildi. 1940 yilda respublikaning jami sanoat mahsuloti hajmida K.s. hissasi 0,8% ni, Kimyo sanoatida band bo‘lgan ishchilar soni sanoat ishchilarining 1% ni tashkil etgan, sanoat ishlab chiqarish fondining 7,4% Kimyo sanoati hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Axmerov K.,O‘zbekiston kimyogarlarining muvaffaqiyatlari.Toshkent (1987-yil)

2. Kadirov V., O‘zbekiston Toshkent (1995-yil)

3. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, (2000-yil)